SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF
«SCIENTIFIC PROGRESS»
ISSN: 2181-1601

# The 21st Century Skills for Professional Activity

Proceedings of the 12th International Scientific-Practical Distance **Conference**



2021, DECEMBER 28

www.scientificprogress.uz

UZBEKISTAN

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF
«SCIENTIFIC PROGRESS»
ISSN: 2181-1601

# THE 21st CENTURY SKILLS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

## PROCEEDINGS OF THE 12th INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL DISTANCE CONFERENCE

www.scientificprogress.uz

TASHKENT, UZBEKISTAN
2021, DECEMBER 28

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

**Yusupbayeva Amangul Saparbayevna**
TCHDPI «Fakultetlararo» jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiyaning so’g’lomlashtiruvchi fan sifatida va sog’lom turmush tarzining ahamiyatini targ'ib etadi.

**Kalt so’zlar :** Jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, «Ilk qadam», Dastur, jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi, sog'lomlashtiruvchi vazifalar, tarbiyaviy vazifalar, jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.

Ushbu maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning ahamiyatini ochib beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari yoshidagi bolalar inson rivojlanishining ilk bosqichi bo'lganligi uchun ham ularga beriladigan har qanday ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Shu jumladan, butun jahonda jismoniy tarbiyaning foydali tomonlariga urg'u berib kelinadi. Buning yaqqol dalili sifatida barcha MTTlarda jismoniy tarbiyaning olib borilishini keltirolamiz. Bir necha asrlar avval ham buyuk yurtdoshimiz Abu Ali Ibn Sino badan tarbiyasi haqida o'z fikrlarini bildirgan va «Badan tarbiya-sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir» degan. Salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Respublikamizda maktbgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya sohasida tarbiyalash davlat ta'limi va nodavlat ta'lim xizmatlaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sohasi va ta'lim, tarbiya sohalari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qununi», «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qaror» kabi qaror, asosiy qonun hujjatlarini o'z ichiga oladi. Bundan

yurtimizda ham maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga ulkan e'tibor ko'rsatilayotganligini ko'rishimiz hamda 2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi(13.02.2019), Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi(09.05.2019)ning tasdiqlanganligini qo'shimcha qilishimiz mumkin. Zero, sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom, baquvvat, iymon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladiki, bu mamlakatning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning bu kabi baxt-saodati uchun sog'lom avlod kerak. Jismoniy mashqlarning ahamiyatini D. Adisson shunday ta'riflaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur bo'lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur». Bolaning jismoniy rivojlanishi uning har tomonlama uyg'un rivojlangan inson bo'lib o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Jismoniy rivojlanish** -odam organizmining tarkib topishi uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Qisqacha qilib aytganda, bu antropometrik va biometrik ko'rsatkichlar: bo'y, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi , qaddi-qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari-muhit va organizmning birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga muntazam o'tishga bog'liq tarzda amalga oshadi. Xolbuki, turmush muhitini hamda jismoniy tarbiya uslublarini o'zgartirib, organizmning funksional imkoniyatarini yuksaltirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgartirish mumkin. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga yo'naltirilgan. Ta'lim-tarbiya berish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishi bolaning sog'lig'iga hamda jismoniy imkoniyatlariga bog'liq. Shu sababli, pedagogikada bolaning sog'lig'i bilan jismoniy imkoniyatiga e'tibor qaratiladi. Jismonan sog'lom bolaning ish qobiliyati yuqori bo'ladi, sharoitga tez ko'nikuvchan bo'ladi, turli topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda organizm shakllanishda davom

etayotganligi sabab ular tez jarohatlanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturi mutaxassislari ilk ba maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning individual pedagogik modelini yaratishi lozim. Jismoniy rivojlanishni shakllantirish **Dastur**ning majburiy qismiga kiradi. Insonning jismoniy rivojlanishi uchun asosan, jismoniy mashqlar yaratilgan bo'lib, ulardan pedagogik muammolarni hal qilishda foydalaniladi. Jismoniy mashqlar-pedagogik tamoyillarga bo'ysunadigan harakat faoliyatidir. Barcha mashqlar to'rt guruhga bo'lingan: gimnastika, o'yinlar, sport mashqlari, oddiy turizm. Ta'lim dasturi bolaning rivojlanishi uchun, qoida tariqasida, kundalik jismoniy va dam olish mashg'ulotlarini, ya'ni ertalabki gimnastika, sinfdagi jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar va mashg'ulotlar o'rtasidagi yurish mashqlari, kunduzgi uyqudan keyingi mashqlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya faoliyatlari haftada ikki marta, ochiq havodagi mashg'ulotlar va sport zalda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni tashkil etadi. Shuni yodda tutish lozimki, o'yin-ta'lim faoliyati kunduzgi uyquni hisobga olmaganda kamida 38%ni, bolalarning ochiq havoda bo'lishi kamida 38%ni, mustaqil o'yin faoliyati kamida 24%ni, sog'lom turmush tarzini shakllantirish (sanitariya-gigiyena ko'nikmalari) kamida 20ni, ota-onalarni bolalar rivoji taraqqiyoti to'g'risida xabardor qilish kamida 3%ni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasining «**Ilk qadam**» dasturi va «Davlat talablari» asosida bolalarni «jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi amalga oshiriladi.

**Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishdan asosiy ko'zlangan maqsad**-bolalarda harakatga bo'lgan ehtiyojni qondirish asosida bolalarning harakat faoliyatini yaxshilash, bolaning jismoniy rivojlanishini o'rganish, tashqi muhitga moslashuvchanligini oshirish, bolaning o'z tanasini his qilish, asosiy harakat va ko'nikmalarni egallash, bajara olayotgan jismoniy harakatlar ko'nikmasini egallash va undan zavq va quvonch olish, sportning sirli olami bilan tanishish, o'zlarining atrofga

va jismoniy qobiliyatlariga mos keladigan faoliyatini topishga yordam berish, sog'lom, quvnoq,jismonan rivojlangan bolani tarbiyalash, uning yoshiga, jinsiga va individual xususiyatlariga mos jismoniy tarbiya haqida bilimga ega bo'lgan va jismoniy mashqlar qiziqadigan bolalarni barkamol avlod sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiyani berishdagi birinchi darajali vazifalarni sog'lomlashtiruvchi vazifalar, ta'limiy vazifalar va tarbiyaviy vazifalar tashkil etadi.

- **Sog'lomlashtiruvchi vazifalar**-sog'likni mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, chidamlilikni, irodani kuchaytirish, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'unlashtirish va rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarda termoregulyatsiyaning sust rivojlanishi tananing noqulay ekologik sharoitlarga chidamliligini oshirishni talab qiladi,shunday ekan yuqoridagi noqulaylikga munosib javob qaytarish va chidamlilik va chiniqishni oshirishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari eng qulay vositalardan biridir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarda umurtqa pog'onasining fiziologik egri shakllanishini, yassioyoqlikning oldini olishga, barcha mushak guruhlarining uyg'un va mutanosib rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.
- **Ta'limiy vazifalar**-jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, gigiyena ko'nikmalarini, jismoniy sifatlarni yuksaltirish, boshlang'ich ko'nikma va malakalarni vujudga keltirishdan tashkil topadi.
- **Tarbiyaviy vazifalar**-jamoada shug'ullanish, topshiriqni bajarishda mas'uliyatlilikni,sport asboblarini ehtiyotlash, axloqiy fazilatlar, ijobiy xususiyatlar va irodani kuchaytiradi.

**Jismoniy tarbiyada asosiy vositalarni** kun tartibi, gigiyenik sharoitlar, uyqu, bolalar kiyimi, sayr, chiniqtirish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash tashkil etadi. Demak, jismoniy tarbiya turmush tarzimizda odatga aylanib qolgan faoliyatlarimiz davomida o'zlashtirilib boriladi. Shu tufayli aytish mumkinki, kundalik hayotimizda , har bir qadamimizda jismoniy tarbiyaning ahamiyati cheksizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lex.uz.
2. Yusupbayeva A. S. Sovershenstvovaniye pedagogicheskix mexanizmov formirovaniya zdorovogo obraza jizni v doshkolnom obrazovanii na osnove fizicheskogo vospitaniya. «Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal N°3 2020y
3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zamova «Maktabgacha pedagogika» «Tafakkur» nashriyoti, Toshkent 2019
4. Yusupbayeva A. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarni tashkil etish usullari. «Xalq ta'limi» ilmiy-metodik jurnal. 2021 yil
5. B. T. Haydarov, G. X. Ibroimova, J. J. Kazimov «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi» Samarqand-2020

## CONTENTS

**Атабоев Ахаджон Джумақўзиевич**
Ўзбек тилидаги эргаштирувчи боғловчиларнинг инглиз тилига таржимаси (pp. 4-8)

**Ne'matullayev Abdunosir**
Zamonaviy hikoyalarda tarixiy mavzuning yoritilishi (pp. 9-11)

**Talipova Gulnoza Davron qizi**
Umumta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini o'qitish (pp. 12-14)

**Матниязова Азиза Бахтиёровна**
Особенности развития мелкой моторики у детей дошкольного возраста (pp. 15-19)

**Sindarov Feruz Xaldarovich**
Fransuzcha frazeologik birliklarda inson ichki kechinmalarining ifodalanishi (pp. 20-24)

**Шадиева М.С., Абдужабарова З.М.**
Гастродуоденальная патология у детей (pp. 25-28)

**Пулатова М.И., Хамраева З.Х.**
Геометрический смысл коэффициентов фурье и экстримальные свойства функции $Z^k$ (pp. 29-30)

**Яркулова З.Р.**
Экиш муддатлари ва азотли ўғит меъёрларининг кузги арпа уруғларининг дала унувчанлигига таъсири (pp. 31-32)

**Nafasov Mirzomurod Muxamadovich**
Mobil ilovalardan ta'lim jarayonida foydalanish (pp. 33-35)

**Amanbayeva Dilnoza Saparbayevna**
Informatika fanini o'rganishda ijtimoiy media marketing (SMM) platformalaridan oqilona foydalanish (pp. 36-39)

**Ravshanov Umidjon Xalil o'g'li, Abdirimov Asadbek Erkin o'g'li**
Temir-betonning qarshlik nazariyasi va konstruksiyasi yaqinda ma'lumot (pp. 40-43)

**Babajanova Fotima Farmanovna**
O'qituvchi shaxsi va uning pedagogik qobiliyatlari (pp. 44-47)

**Maxmudova Xurshida Irgashevna, Unarova Hafiza Abdumannonovna, Mamatqulova Bo'ston Aminovna**
"Boburnoma"da bioxilma-xillik va uning ekologik tarbiyadagi roli (pp. 48-51)

**Nazarova Ozoda Tashnazarovna**
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida kimyo darslarini tashkil qilish (pp. 52-54)

**Dostova Yulduzxon Ostanaqulovna**
Ta'lim sharoitida ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari (pp. 55-58)

**Eshchanov Yashnarbek Bahodir o'g'li**
Fizika darslarida integratsiya xususiyatlaridan foydalanib darslarni tashkil etish (pp. 59-62)

**Fayziyeva Aziza Anvarovna**
Shaxsiy rivojlanishga oid asarlar va ularning tarjimasi xususida (pp. 63-67)

**Inoyatxon Arzimatova, Havasxon Arabxonova**
Cultural improvement factor to increase the efficiency of reforms (pp. 68-71)

**Imomova Umida Iskandarovna, Jarkunova Manzura Bekboyevna, Tilavova Firuza Xayrullayevna**
O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati (pp. 72-75)

**Inomov Rayimjon Mirsaidovich, Ashurov G'ulom Malikovich**
O'lchovning metodik sifat talablari (pp. 76-78)

**Jumaniyozova Shahnoza Zeripboyevna**
Fizika fanini o'qtishda multimedialarning o'rni (pp. 79-81)

**Jumaniyozova Shoira Po'latovna**
Oilaviy zo'ravonlikni oldini olishda psixologik metodikalarning ahamiyati (pp. 82-85)

**Mamatqulova Bo'ston Aminovna, Maxmudova Xurshida Irgashevna, Ochilov Begzod Salimovich**
Baliqlarni xalq xo'jaligidagi ahamiyati (pp. 86-88)

**Otamuratova Mavluda Jumanazarovna**
Matematika rivojlanishining asosiy davrlari (pp. 89-91)

**Qarriyeva Ma'mura Boltabayevna**
Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (pp. 92-95)

**Rahmanova Aliya Valerevna, Aydarbekova Asiya Igilikovna**
The ways of improving vocabulary (pp. 96-99)

**Sadullayeva Nafosat Otabekovna**
Matematika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish (pp. 100-103)

**Temirova Shaxnoza Raxmatovna**
Ona tilidan ma'lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari (pp. 104-107)

**Tojibayeva Muslima Qahramon qizi**
The ways of teaching speaking (pp. 108-110)

**Turaboyeva Sitora Zokir qizi**
Hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklarning semantik tahlili (pp. 111-114)

**Мухиддинова Дилноза**
Янги ижтимоий психологик қонуниятларга таяниш тенденциялари (pp. 115-118)

**Xayrillo Xikmatullayevish Rejapov, Baxodirov Diyorbek**
«Big data» va uning iqtisodiyotdagi o'rni (pp. 119-124)

**Равшанова Гулчера Махаматовна**
Таълим жараёнларини ислоҳ қилишда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги (pp. 125-129)

**Умарова Ирода Бакировна**
Инсоний муносабатлар психологияси (pp. 130-133)

**Урдабаева Гулнора Мамбеталиевна**
Психологиянинг замонавий методлари ва уларни амалиётга тадбиқ этиш (pp. 134-137)

**Хамракулова Камола**
Оилада зўравонликни келиб чиқиш сабаблари, оқибатлари ва олдини олиш (pp. 138-141)

**Менглиева Сунбула Савранбековна**
Изучение иностранных языков при помощи разных методов (pp. 142-145)

**Yusubova Sharqiyaxon San'at qizi**
Xorazm viloyati agroturizm sohasini rivojlanish xususiyatlari (pp. 146-151)

**Murodulla Islomov Umarovich**
Magnitoelektrik tizimli asboblar (pp. 152-154)

**Ochilova Hilola Habibjon qizi**
Teaching English to young children (pp. 155-158)

**Худойқулова Зарифа Умматқуловна**
Психология ва унинг моддий асослари (pp. 159-162)

**Ахметова Севара Авазхоновна**
Шахснинг ўзи ҳақидаги образи (pp. 163-165)

**Эшанкулова Иродахон Авазхановна**
Шахс иқтидори ва қобилиятлар диагностикаси (pp. 166-169)

**Faxriddinov Yoqubjon**
Tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning o‘rni (pp. 170-174)

**Ташматова Гулзода Нематуллаевна**
Чет эл психологиясида шахс назариялари (pp. 175-178)

**Omon Suvanov**
O’zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy g’oyalari (pp. 179-182)

**Sirojov Talant Tolibovich**
Technogenic waste of the mining and metallurgical industry (pp. 183-185)

**Azamat Eralov**
O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishida xalq o’yinlari va milliy sport turlarining tutgan o’rni (pp. 186-188)

**Yarashova Shahrizoda**
Juft va takror so’zlar tadqiqi va ma’no ifodasi (ravish so’zlar misolida) (pp. 189-193)

**Усманов Рахимхужа Абдугани угли**
Анализ к вопросу о зимней содержание автомобильных дорог (pp. 194-198)

**Авезова Гулойим Саттаровна, Худойбердиев Сайидо**
Тошкент шаҳрида содир этилган йўл транспорт ҳодислари ва уларнинг таҳлили (pp. 199-201)

**Соатов Санжар Сарварович**
Ўзбекистонда ташқи савдони тартибга солишда билвосита солиқларни такомиллаштириш истиқболлари (pp. 202-208)

**Shavkat Mavlonov**
Affiksatsiya usulida yasalgan so’zlarning “O’zbek tilining izohli lug’ati”da ifodasi (“A” harfi misolida) (pp. 209-213)

**Turg’unboyeva Madinaxon Erkinboy qizi**
O‘zbekistonda “Solfedjio” fani amaliyotida kuzatilayotgan muammolar (pp. 214-218)

**Хушназарова Махзуна Гуламджановна**
Тарихий ва маданий туризмни ривожланиш тамойиллари ва хусусиятлари (pp. 219-222)

**Нуров Ҳомид Иброхимович, Амруллаев Бекзод Бобур ўгли**
Разработка рекомендаций по официальному использованию электрической энергии путем проведения энергетического аудита на промышленных предприятиях (pp. 223-227)

**Жумаев Ахром Асрор ўғли, Амруллаев Бекзод Бобур ўгли**
Разработка методов энергосбережения с управляемым энергосбережением (pp. 228-231)

**Нуруллаев Хасан Тўхтаевич**
Немис ва ўзбек лингвомаданиятида "қўрқув" ва "ғазаб" концептларининг ифодаланиши (соматик фразеологик бирликлар мисолида) (pp. 232-237)

**Холлиев Джавохир Фархадович, Амруллаев Бекзод Бобур ўгли**
Применение и проблемы автоматизированной системы учета и контроля потребления электрической энергии (АСКУЭ) в промышленности (pp. 238-240)

**Xudoyberganov Javlonbek Saotboy o'g'li**
Jismoniy chidamlilik sifatlarini rivojlantirish (pp. 241-245)

**Jumayev Abdilxakim Turdiyevich**
Gimnastika vositalari asosida talabalarni sport mahoratini oshirish (pp. 246-250)

**Odilov Otabek Norboyevich**
Maktab o'quvchilari jismoniy madaniyatining maqsad va vazifalari (pp. 251-255)

**Абдулахатов А. Р.**
Узлуксиз таълим тизимида педагогик таълим инновацион кластерини ташкил қилиш муоммолари (pp. 256-261)

**Sherali Maxmudovich Jo'raev**
Harbiy vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning ahamiyati (pp. 262-265)

**Abdullayeva M. S.**
Talabalarga mehnat muhafazasini o'rgatishning ayrim masalalari (pp. 266-270)

**Абдуллаева М. С.**
Бўлажак технология таълими ўқитувчиларини касбий-педагогик фаолиятини такомиллаштиришда касбий компетентлигини шакллантириш методикаси (pp. 271-276)

**Турсунов Абдумўмин Эрдиқулович**
Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фани бўйича машғулотларга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш (pp. 277-281)

**Маматкулов Равшанжон Солижонович**
Развитие будущих учителей физической культуры с помощью кластерного метода (pp. 282-286)

**Шерматов Махсуд Нажимович**
Футбол ўйин фалсафаси, руҳияти ва қонун қоидалари (pp. 287-292)

**Нурматов Фархат Абдуалимович**
Основные положения и требования учебной программы по физической культуре для вузов (цель, задачи и формы организации физического воспитания) (pp. 293-299)

**Р. С. Шермухамедов**
Бўлажак технология ва касб таълими ўқтувчисини малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш ва бошқариш тизими (pp. 300-304)

**Сайидова М. Х.**
Методические основы формирования и развития творческой способностей будущих учителей трудового обучения (pp. 305-308)

**Boltaboyev Salimboy Akromovich, Xamidov Jamshid Abdisamiyevich**
Texnik ijodkorlikda qo'llaniladigan metodlarning didaktik psixologik xususiyatlari (pp. 309-313)

**Д. У. Умаралиева**
Олий таьлим талабаларига енгил атлетика фанининг ўргатиш вазифалари (pp. 314-316)

**Чориев Илхом Рузибайович**
Развитие кластерного подхода в системе повышения квалификации учителей (pp. 317-322)

**Shadiyev Aziz Yokubovich**
Yoshlar o'rtasida sport o'yinlaridan o'tkaziladigan musobaqa tizimlari (pp. 323-327)

**Yusupbayeva Amangul Saparbayevna**
Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning ahamiyati (pp. 328-332)